

ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIDAKTIK MATERIALLARNING O'RNI

¹Safarova Nigora Oxunjonovna,
Filologiya fanlari nomzodi, professor,
²Abdullayeva Gulshan Ravshanovna

BuxDUPI magistri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7519298>

Bugungi kunda ta'lif sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lif sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni 2020 yil 23 sentyabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lif sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'quvchilaridan o'z ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va obyektiv tarzda baholay olishga oid ma'suliyat ham shakllangan bo'lishi kerak. O'quvchining o'zi berilgan o'quv materiallarni modellashtira olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Bu jarayonda bolaning o'zi mustaqil tarzda har qanday sxema, model bo'la olmasligini tushunib yetishi kerak, bir so'z bilan aytganda, unda faraz qila olish ko'nikmasi hosil bo'lishi lozim. Kichik mакtab yoshida o'qishga, o'r ganishga yo'naltirilgan faoliyat yetakchi mavqega ega bo'ladi. Shu bilan bir qatorda kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarining rivojlanishida o'yin, sport, ijodiy faoliyat ham muhim o'rin tutadi. Lekin o'qish, o'r ganish, yani ta'lifiy faoliyat boshqa barcha faoliyat turlarini muayyan bir maqsadga – bolani mujassam rivojlantirish maqsadiga yo'naltirishi lozim. Jumladan, nutq va savodxonlikni rivojlantirishga, jismoniy taraqqiyotni ta'minlashga va boshqalar. Zamonaviy boshlang'ich ta'lif jarayonida bolalarni rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lgan ta'lif tizimi tadbiq qilinadi. Unda kichik mакtab yoshidagi bolalar o'z yosh xususiyatlari va tafakkur hamda ruhiy taraqqiyot darajalari o'zlashtirish imkonini beradigan ta'lifiy faoliyatga kirishadilar. Qaysiki, bu faoliyat o'quvchilar uchun yetakchi faoliyat bo'lib hisoblanadi.

Kichik mакtab yoshidagi bolalarda o'qish hamda o'r ganishda qaratilgan faoliyatning shakllanishida, har bir o'quv predmeti bo'yicha nazariy bilimlarni egallash arayonida ularning ongi va tafakkuri jadal tarzda rivojlanadi. Bu ong va tafakkur o'z xarakteriga ko'ra nazariy hamda ilmiy tushunchalarni o'zlashtirish natijasida vujudga kelgan ong va tafakkur bo'lib, bolaning jadal tarzda taraqqiy etishini, dunyoqarashining rivojlanishini ta'minlaydi.

Shu asosga ko'ra, boshlang'ich ta'lifning bosh maqsadi kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarda ta'lif olishga, o'r ganishga qaratilgan faoliyatni

shakllantirish asosida ularni tarbiyalash hamda shaxsiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishdan iborat. "Didaktika" tushunchasi (grekcha "didaskein") "O'qitish va o'qish nazariysi" degan ma'noni bildiradi. Didaktika nazariy dars va instruktaj o'tkazishning maqsadi, mazmuni, metod va shart-sharoitlarini belgilaydi. Didaktika va metodika uslubiyot bir-biri bilan uzviy bog'liq. Metodika deganda ilmiy usullar xakidagi fan tushuniladi. Bu fan didaktikaning bir bo'limidir. Didaktika nima va nima uchun o'qitish kerak degan savollar bilan shug'ullansa, u bilan uzviy bog'liq holda metodika esa qaysi tarzda va nimalar yordamida o'qitish masalalari bilan shug'ullanadi. Bunda amaliy usullar tizimi maxsus sohaning mazmuniga bog'liqligini hisobga olish zarur. Boshqacha qilib aytganda, o'qitish metodikasi – bu turli hil yo'llar va usullar tizimi bo'lib, o'quv-didaktik materiallaridan foydalanib, belgilangan maqsadlarga erishish uchun nazariy dars va instruktaj paytida qo'llaniladi. Didaktik hatti-harakatlar deganda, biz o'qituvchining ta'lim jarayonini didaktika va metodika bilimlarini qo'llash orqali tashkillashtirish hatti-harakatlarini tushunamiz. Jamiyatimizning barcha jabhalarida qayta qurish bo'lgani kabi ta'lim-tarbiya sohasida ham qayta qurish, yangilanish zarurligi namoyon bo'lib bormoqda. Mustaqillik va ta'lim sohasidagi islohotlar ta'lim jarayoni uchun tavsiya etiladigan didaktik materillarni zamon talablari asosida tubdan qayta ko'rib chiqish va zamonaviy shakllarini yaratishni taqozo etmoqda. Zamonaviy didaktik materiallar qanday bo'lishi kerak ekanligi borasida qator didaktik olimlar izlanishlar olib borishmoqda. Ushbu paragrafda zamonaviy darslik, o'quv qo'llanmalar va ikkilamchi didaktik materiallarga quyiladigan talablarni tahlil qilamiz.

Darslik o'quvchilarning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida belgilab berilgan bilim, ko'nikma va malakalarni faol va ongli suratda o'zlashtirishga yordam beruvchi, o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan asosiy vosita hisoblanadi. Maktab darsligi oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- davlat ta'lim standartlariga mos kelish;
- o'quvchilarning bilim olishiga yordam berishi;
- o'quvchilarda mustaqil faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish;
- o'zlashtirilgan bilimlarning kundalik turmush amaliyoti bilan bog'lash;
- o'quvchilarni shu fan bilan bog'liq ravishda kasbga yo'naltirish;
- ta'lim va tarbiyani o'zaro chambarchas bog'lash;
- o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash;
- boshqa fanlar bilan uyg'unlashish (integrastiya);
- fanga oid etarli miqdordagi ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirish;

-ta'lim olishning turli uslublarini o'zida mujassamlashtirish;
- o'quvchiga o'z-o'zini yoki o'qituvchiga o'quvchilar bilimini baholash va nazorat
-qilish imkoniyatini yaratish.

Darslik fan asoslarini hayot bilan, kundalik turmush bilan o'zaro bog'lanishini amalga oshirishi, hozirgi zamonning, tabiat va jamiyatning bosh muammolarini tushunishda o'quvchilarga ko'maklashishi hamda ularning bilish va ijodiy izlanish qobiliyatlarini rivojlantirishi lozim. Shuningdek, o'quvchilarda o'z bilimlarini uzlucksiz takomillashtirish va mustaqil bilim olishni davom ettirish imkoniyatlarini ochishga yordam berishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni. // Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T: 1997. 20-29 b.
2. Abduqodirov A.A. Umumta'lif maktablari uchun elektron darslik yaratishning nazariy asoslari // Pedagogika va axborot texnologiyalari yutuqlar va istiqbollari: Resp. ilmiy-amaliy konf. mat. O'zPFITI, - Toshkent, 2003. 30-35 b
3. Antonov A.F., Adilov Q.X. Umumiylif ta'lif mazmunini tanlashning didaktik shartlari. Metodik tavsiyalar. – T.: 1994. - 24 b.